

**YEVROPA MAMLAKATLARIDA (1917-1924-YILLARDA) RO‘Y BERGAN  
IQTISODIY-SIYOSIY VOQEALARNING DAVRIY MATBUOTDA  
YORITILISHI MASALALARI XUSUSIDA**

*Mo‘minov Sh.*

*Nizomiy nomidagi TDPUning 2-kurs magistri*

Yevropada birinchi jahon urushi yakunlanib borishi bilan u yerdagi iqtisodiy-siyosiy jarayonlar ham murakkablashib borgan. Urushdan charchagan qit‘a davlatlari har jihatdan tezroq qayta tiklanish va urushdan keying hududning siyosiy xaritasi haqida qayg‘ura boshlagan. Ana shunday qiziqarli voqealar butun dunyo nigohida bo‘lib, ular mintaqadagi jarayonlarni diqqat bilan kuzatayotgan edilar. Huddi shunday Turkiston o‘lkasida ham bu voqealar diqqat bilan kuzatib borilgan. Bu borada esa ularga mazkur davrdagi o‘lkadagi davriy matbuot materiallari ko‘zgu vazifasini o‘tab bergan.

Turkistonda sovet hokimiyati to‘liq o‘rnatilgach, o‘lkada dastlabki matbuot organlari ham vujudga kela boshladi. Ushbu nashrlarda Turkistonda sodir bo‘layotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan bir qatorda Yevropa mamlakatlarda ro‘y berayotgan voqea-hodisalar ham yoritib borilgan. Xususan, “Najot”, “Ulug‘ Turkiston”, “Ishtirokiyun”, “Qizil Bayroq”, “Mehnatkashlar tovushi”, “Turkiston”, “Zarafshon”, “Buxoro axbori”, “Hurriyat”, “Ishtirokiyun”, “Ozod Buxoro”, “Farg‘ona”, “Yangi Sharq”, “Inqilob”, “Gazetchi” va boshqa gazeta-jurnallar alohida ahamiyatga ega. Xorijiy mamlakatlarda bo‘layotgan voqealardan xabardorlikka intilish gazeta nashr etilishiga ham sabab bo‘lgan. Davr muarriflarining ma‘lumotlariga qaraganda, Farg‘onada gazeta chop etishga bo‘lgan qiziqish 1911–1912-yillardagi Turkiya-Italiya o‘rtasidagi urushdan boshlangan. Muallif bu urushdan so‘ng Bolqon urushi, undan so‘ng jahon urushi, Rossiyadagi fevral va oktabr inqilobi va ichki urushlar bir-biriga ulashib ketaverganligi, bu omillar mahalliy aholini gazeta o‘qishga, dunyoda bo‘lib turgan voqealarni bilib turishga qiziqtirganligini takidlaydi<sup>1</sup>. Ko‘rinib turibdiki, xorijiy voqealikalarni bilishga bo‘lgan qiziqish ijobiy natijalarni keltirib chiqargan. Xorijiy davlatlardagi iqtisodiy-siyosiy jarayonlarni faqatgina Farg‘onadagi matbuot organlari bilan cheklab qo‘yish to‘g‘ri emas, balki butun Turkiston o‘lkasida ham gazetalarni chop etishga turtki bo‘lgan edi. Davriy matbuot sahifalarida Yevropa mamlakatlari haqidagi xabarlar va maqolalarni quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin:

1. Alohida va umumiy voqealar bayoniga bag‘ishlangan maqolalar.
2. Ma‘lum bir shaxslar faoliyatiga bag‘ishlangan maqolalar.
3. Maxsus ruknlar ostida berilgan ma‘lumotlar.
4. Xorij gazetalaridan tarjima qilinib nashr etilgan maqolalar.

<sup>1</sup> Gazetchi. Farg‘onada tub joy xalq matbuoti // Farg‘ona. – 1924. – №168.

Ushbu davrda Yevropa dunyo voqealarining markazida bo‘lib, mazkur mintaqada Birinchi jahon urushi bilan bog‘liq vaziyat hukmron edi. 1918-yil boshlarida Turkistonda hali sovetlar o‘z hukmronligini to‘la-to‘kis o‘rnatmaganligi bois, ular o‘zlarining rasmiy matbuotiga ega emas edi. Shu sababli, 1918-yildagi voqea-hodisalar mahalliy “Hurriyat” va “Ulug‘ Turkiston” gazetalarida muntazam yoritib borilgan.

Mazkur nashrlarda Kavkaz, Ukraina va Rossiyaning G‘arbiy frontlari hamda Yevropa mamlakatlarida urushning borishi kabi ma’lumotlarni uchratish mumkin. Ma’lumki, Rossiyadagi Oktabr to‘ntarishidan keyin hokimiyat tepasiga kelgan sovet hukumati Germaniya bilan sulh tuzadi. Turkiston ham Rossiya tarkibida bo‘lganligi sababli ushbu jarayonlar davriy matbuotda iloji boricha kengroq yoritib borilgan. Milliy matbuotda Birinchi jahon urushning yakunlari va Germaniyaning taslim bo‘lish xabarlari ham berib borilgan. Urush yakunlangandan so‘ng g‘olib va mag‘lub davlatlar o‘rtasida tuzilgan shartnomalar hamda uning yakunlariga bag‘ishlangan Versal konferensiyasi masalalariga alohida ahamiyat berilgan<sup>2</sup>. Birinchi jahon urushidan so‘ng dunyoda yangi muvozanatlar o‘rnatila boshlandi. Angliya va Fransiyaning g‘olib davlatlar sifatida mavqeyi ortib bordi. Urushdan keyingi yillarda mazkur davlatlarning iqtisodiyoti va xo‘jaligini tiklash, yangi chegaralarni belgilash uchun bir qator yig‘ilish hamda konferensiyalar o‘tkazilgan.

Dastlabki mana shunday konferensiyalardan biri bu– Amerika Qo‘shma Shtatlarida o‘tkazilgan Vashington konferensiyasidir. Ushbu konferensiya Birinchi jahon urushidan keyingi vaziyatda kapitalistik davlatlar orasida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan navbatdagi urushni oldini olish va qurolsizlanish masalalarini hal etishi bayon etilgan bo‘lsa-da, Fransiyaning “Yumanite” gazetasi ushbu konferensiyaning nima maqsadda yig‘ilishiga to‘xtalib: “Vashing‘to‘n kanperensiyasi jahon kapitalistlarining butun yer yuzi neptin (neft) taqsim qilish uchun to‘g‘risida to‘plang‘on kurashidan iboratdur. Ushbu kurash katta sindikat (shirkat) tepasida turg‘on G‘arding (U. Garding – AQSH prezidenti) tomonidan boshlanubdur”<sup>3</sup>, deb konferensiyaning maqsadi qurolsizlanish emasligi, balki jahon neft zaxiralarini taqsim etish ekanligini bildirgan.

Ammo, ushbu konferensiyadagi voqealar rivojidan ko‘rinadiki, birinchi jahon urushidan so‘ng davlatlarni qurolsizlantirish masalasida tuzilgan “Millatlar Ittifoqi”ning o‘zi bu yangi urushni tashkilotchisi ekani bildirilgan. Konferensiyadagi etakchi davlatlar (AQSh, Angliya, Fransiya va Yaponiya)ning ushbu ishtirokdan maqsadlariga to‘xtalib: “Amerika dengiz vazirligi harbiy kemalar solish programmasini bajarilishini bildirgan, Yaponiya – Saxalindan ketmasligi va Sibirni tashlamasligini bildirgan. Fransiya – o‘zining flotini Angliya va Amerikaga o‘xshash

<sup>2</sup> Abu T. Sulhi umumiy natijasida // Ishtirokiyun. – 1919. – №102; Ovrupo maydonlarida // Ishtirokiyun. 1919. 10-iyul. – №130; Siyosat va urush maydonlarida // Ishtirokiyun. – 1919. – №135

<sup>3</sup> Vashington konferensiyasi. Chet ellarda // Qizil Bayroq. – 1921. – №118

kuchaytirishga ruxsat soʻraydir”<sup>4</sup> . Koʻrinib turibdiki, katta davlatlar qurolsizlanishni oʻylamagan, bilaks oʻz harbiy qudratini oshirishga harakat qilgan.

Konferensiyada bir davlat oʻziga raqobatchi deb bilgan davlatlar va ittifoqlarni kuchsizlantirishga uringan. Jumladan, Angliya va Fransiya oʻz piyoda qoʻshinlari sonini ozaytirsa, oʻz dengiz kuchlarini kamaytirish, AQSh esa Angliyaga Yaponiya bilan oʻrtasidagi ittifoqni tugatish, Yaponiyaga Xitoydan qoʻshinlarini olib chiqish, har ikki davlatga esa urush kemalarini ishlab chiqarishni toʻxtatishni taklif qilgan. Ammo, AQShning oʻzi urush kemalarini yasash uchun xarajatlarni 396 million dollardan 494 million dollarga koʻpaytirganligi matbuotda tahlil etilgan<sup>5</sup> .

Urushdan soʻng Evropada ijtimoiy – iqtisodiy muammolar koʻpayib bordi. Inqiloblar boʻy koʻrsata boshladi. Angliya bosh vaziri Lloyd Jorj Evropadagi bu vaziyat haqida “Biz Evropani bu kungi iqtisodiy buhrondan chiqara olmasak, inqilob toʻlquni ostida qolushimiz aniqdir”<sup>6</sup> deb bu jarayonlarni toʻgʻri baholagan edi. Shu sababli, Evropa siyosiy doiralari ushbu oʻlkadagi ijtimoiy – iqtisodiy hayotni izga solish uchun aniq bir reja ishlab chiqishga kirishdilar. Shu maqsadda Genuya konferensiyasini chaqiriladi. Genuya konferensiyasi haqida davriy matbuotda berilgan maʼlumot va maqolalarda ushbu xalqaro anjuman Rossiyada sovet hokimiyati oʻrnatilgach, uning xorijiy mamlakatlar bilan birinchi xalqaro hamkorligi ekanligi maʼlum boʻldi. Koʻpgina nashrlarda Rossiyadan ushbu konferensiyaga delegatlarning qatnashishi belgilangan boʻlib, ular orasida Buxorodan ham vakillar bor edi. Ushbu konferensiyada telegraf va telefon xatlarini koʻpaytirish uchun Italiya hukumati 10 million lira ajratgan edi. Ushbu konferensiya ishida 1000 dan oshiq vakillar qatnashishi rejalashtirilgan boʻlib, matbuot vakillaridan 500 dan ortiq muhbirlar kelishi kutilgan. Bundan koʻrinadiki, matbuot organlari ushbu davrda voqealarni yorituvchi eng asosiy vosita boʻlganligini koʻrish mumkin.

Konferensiya ishida Amerika Qoʻshma Shtatlari rasman ishtirok etmagan, davlat delegatsiyasi yubormay, balki iqtisodiy jabhada Evropada yangi hamkorlarni topish uchun bankir Vanderlip va AQShning Rimdagi vakili Chayld ishtirok etgan, ammo ular siyosiy vakillar missiyasini bajara olmagan edi.

Konferensiyada barcha davlatlar oʻz talablari bilan ishtirok etadi. Jumladan, Chexiya, Polsha, Serbiya va Ruminiya iqtisodiy ittifoq loyihasini tuzib, Genuyada buni tasdiqdan oʻtkazishni rejalashtirgan . Fransiya va Belgiya davlatlari Sovet hukumatidan podsho hokimiyati davridagi chet eldagi mol-mulklarni qaytarishni talab qildi, Angliya va Italiya bu boʻyicha loyiha tayyorladi. Agar sovet hukumati ushbu qarzlarni oʻz boʻyniga olsa, Angliya uni tan olishga tayyorligini bildiradi<sup>7</sup>. Mustafu Kamol Poshsho Turkiya ushbu konferensiyada ishtirok etmasa, uning Turkiya

<sup>4</sup> Qurolsizlanish // Qizil Bayroq. – 1921. – №117

<sup>5</sup> Washington konferensiyasi. Chet ellarda // Qizil Bayroq. – 1921. – №114.

<sup>6</sup> Usmonxon. Genuya konferensiyasi va Yaqin Sharq // Inqilob. – 1922. №5. – B.1 - 3.

<sup>7</sup> Genuya konferensiyasi // Qizil Bayroq. – 1922. – №158.

to`g`risida chiqargan qarorlarni tan olmasligini bildirgan. Kichik Antanta davlatlari esa ushbu konferensiyadan katta natijalar kutmagan edi. Shuningdek, 5 aprelda Italiyaning Jenoa shahrida ushbu konferensiyaga betaraf davlatlarning ham anjumani o`tkazilib, unda Norvegiya, Shvesiya, Gollandiya, Ispaniya va Shveysariya kabi davlat vakillari ishtirok etgan. Mazkur konferensiyaga 45 davlatdan vakillar kelishi kutilib, u 1922 yil 8 martda ochilib, uch hafta davom etishi belgilangan. Keyinchalik anjuman 27 martga ko`chiriladi, buning sababi, Italiyadagi hukumat buhroni bo`lib, bu vaqtda yangi hukumat tasdiqlanmagan edi. Shu sababli, ushbu konferensiya 11 aprelda ochiladi. Konferensiyaning asosiy maqsadi, mezbon – Italiya bosh vaziri Fofta aytganidek: “...Urushdan keyingi davrda Yevropa davlatlarining iqtisodiy va xo`jalik ishlarini avvalgi holiga keltirish” bo`lsa-da, ammo voqealar rivojidan anglashiladiki, bu yerda Germaniya hamda Rossiya o`rtasida tuzilgan shartnoma konferensiya rejasini o`zgartirib yuborgan edi. 1922-yil 16-aprelda Italiyaning Rappalo shahrida imzolangan ushbu ahdnomani Rossiya tashqi ishlar vaziri Chicherin, Germaniya tomonidan esa Rotenaular imzolagan edi. Konferensiyada ko`rilgan masalalarga e`tibor berilsa, Sovet hukumati umumiy qurolsizlanish to`g`risidagi taklif bilan chiqdi. Biroq, kelishmovchiliklar masalasi va G`arbiy davlatlar tomonidan o`zaro moliyaviy-iqtisodiy taranglikni yumshatish masalasi ham hal qilinmaganligi matbuotda e`lon qilingan maqolalarda berib borilgan<sup>8</sup>.

Konferensiya natijalariga e`tibor berilsa, bu yerda Angliya va Fransiya o`rtasida boshqa davlatlarga nisbatan muhim bir ittifoq mavjudligi, ammo ushbu ikki mamlakatning ham qarama-qarshiligi mavjudligi e`tirof etilgan. Ushbu qarama-qarshiliklarda Fransiyaning maqsadi, Germaniyaning Yaqin Sharqdagi mustamlakalarini egallash va Turkiya ustidan o`z nazoratini o`rnatib, Angliyaning Afrika hamda Osiyodagi mustamlakalaridan mahrum qilish bo`lsa, Angliya esa bunga qarshi chiqib, Germaniyaning qarzlarini kamaytirib, Fransiya qarshi kuchli Germaniya davlatini barpo etish va u yerda o`z mahsulotlari uchun yangi bozorlar tashkil etish ekanligi tahlil etilgan. Moliyaviy iqtisodiy masalalarni muhokama qilish 1922-yildagi Gaaga konferensiyasida davom ettirildi. Mazkur konferensiya Gollandiyaning Gaaga shahrida, 28 ta Yevropa davlatlari va 5 ta Britaniya dominionlari vakillari ishtirokida bo`lib o`tgan xalqaro moliyaviy-iqtisodiy konferensiyadir. Ushbu konferensiyada bo`lib o`tgan jarayonlar haqida Turkiston matbuotida bir qator maqolalar berib borilgan . Dastlab matbuotda konferensiya 1922-yil 15-iyunda ochilib, 20-iyunda yakunlanishi belgilangan edi . Ammo keyinroq uni ochilish marosimi 26-iyunga kechiktirilgan. Uning ochilish yig`ilishida 11 davlat vakillari ishtirok etishi belgilangan bo`lib, Bular, Angliya, Fransiya, Italiya, Belgiya, Yaponiya va boshqa ikkinchi darajali davlatlar .

<sup>8</sup> Genuya konferensiyasidan keyin // Qizil Bayroq. – 1922. – №181.

Ushbu konferensiyadagi asosiy jihatlardan biri Rossiyani Yevropaning ko'p davlatlari tomonidan e'tirof etilishi edi. Jumladan Italiya va Angliya xo'jalik ishlarini tiklash uchun tezda u bilan shartnoma imzolashni taklif etgan bo'lsa, Yevropaning ko'pchilik davlatlari Rossiya hususiy mulkni e'tirof etsa bas, u bilan kelishish mumkin deb hisoblashgan .

Konferensiya arafasidagi xabarlarda faqat Fransiyagina Rossiyaga qarshi ekanligini bilish mumkin, ammo u xususiy investorlari Rossiyaga sarmoya kiritishi mumkinligini bildirgan. Fransiya vakili esa Gaagada konferensiyasida Rossiya bilan kelishishga umid katta ekanligi, chunki bu yerda Genuyadagi kabi munozaralarga ortiqcha vaqt sarf etilmasligi, agar umumiy kelishuv bo'lmasa har bir davlat Rossiya bilan alohida shartnoma tuza olishini aytib o'tgan . AQSH esa ushbu konferensiyaga ham o'zining rasmiy vakillarni yubormagan . Ushbu konferensiyada G'arb davlatlarining Sovet hukumatiga munosabati o'zgarganligini ko'rish mumkin.

Rossiyaning ushbu konferensiyadagi ishtirokining asosiy vazifalari Yevropa davlatlari tomonidan Rossiyani tan olish va o'zining qiyin ahvolga tushib qolgan iqtisodiyotni tiklash uchun qarz olishdan iborat edi.

Konferensiya jarayonlariga e'tibor berilsa, asosiy masalalardan biri bu Rossiyaga qarz berish bo'lganligini ko'rishimiz mumkin .

Ammo, xabar va maqolalardan ma'lum bo'ladiki, Yevropa davlatlari Rossiyadagi sovet hukumatidan podsho hokimiyati davridagi qarzlarni egalariga qaytarishni talab etib turib olishgan. Angliya va Italiya hay'atlari oxir oqibat Rossiyaga qarz bera olmasliklarini bildirganlar .

Angliya esa Rossiya bilan xususiy shartnomalar tuzishga harakat qilgan . Ushbu holat Fransiyaning noroziligiga sabab bo'lgan va Angliya bilan navbatdagi qarama-qarshilikka olib kelib, konferensiyani o'z oldiga qo'ygan masalalarni hal eta olmaganligini ko'rishimiz mumkin .

Mazkur davrda Yevropada sezilarli o'zgarishlarga olib kelgan Turkiya va Yunoniston o'rtasidagi urush jarayonlari ham matbuot sahifalaridan keng o'rin olgan. Matbuot sahifalarida ushbu urushda Turkiyadagi siyosiy o'zgarishlar, Yunonistonning Angliya va Fransiya tomonidan qo'llab-quvvatlanganligi, yunonlar urushga juda ko'p 320 ming nafar askar tayyorlaganligi , ammo Mustafa Kamol Poshsho boshchiligidagi turk qo'shinlarining g'olibona harakatlari natijasida Yunoniston armiyasi katta yo'qotishlarga uchraganligi qayd etilgan. Chunonchi, butun urush davomida 50 ming yunon askari halok bo'ladi, Izmir yaqinidagijanglarda esa 400 nafar ofitser va 10 mingta askarlar turklarga asir tushadi.

Yuqoridagi omillar yunonlarni sulh tuzishga majbur etadi. Dastavval sulh konferensiyasi joyi sifatida Venetsiya belgilansa-da, keyinchalik bu joy Muddaniyaga ko'chiriladi. Ammo, 1922-yil 6-oktabrda imzolangan "Muddaniya" sulh shartnomasida yunon qo'shinlari 10 kun muddat ichida Edirna shahrigacha bo'lgan

hududdan qo‘shinlarini olib chiqishi, Anqara hukumati esa yarash shartnomasi imzolaguncha Istanbul ittifoqchilar tomonidan boshqarilib turishiga rozi bo‘ladi. Ammo, tomonlar keyinchalik ushbu shartnomaga amal qilmaganliklarini ko‘rish mumkin.

Shundan so‘ng ittifoqchi davlatlar (Angliya, Fransiya, Italiya) Yunoniston va Turkiya o‘rtasida yarashish bitimini imzolash maqsadida konferensiya o‘tkazish taklifini bildiradi. Bu tarixga “Lozanna konferensiyasi” nomi bilan kiritiladi.

Ushbu konferensiya voqealari ham Turkiston matbuotida keng yoritilgan. Dastavval konferensiya boshqa shaharlarda o‘tishi belgilansa-da, keyinroq taraflar bir qarorga kelgan edi. Ushbu konferensiyada Fransiya, Angliya, Italiya, Yaponiya, Turkiya, Yunoniston, Serbiya va Ruminiya ishtirok etishi, Rossiya, Ukraina, Gruziya hamda Bolgariya davlatlari faqat bo‘g‘ozlar masalasidagina ishtirok etishi belgilangan. Shuningdek, Sevr shartnomasida ishtirok etgani uchun AQSH ham ushbu konferensiyaga taklif etilgan edi.

Xulosa qilib aytganda, Yevropadagi iqtisodiy-siyosiy voqealar mahalliy va mintaqaviy xabarlar singari muntazam ravishda Turkiston davriy matbuotida yoritib borilgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. G‘arb maydonida // Hurriyat. – 1918 №84; Germaniya va Turkiya elchilari tinchlik qarshilag‘on // Ulug‘ Turkiston. – 1918. – №95; Germaniya va sulh masalasi // Ishtirokiyun. – 1919. – №126.
2. Abu Turg‘ud. Ijmaoli siyosiy // Ishtirokiyun. – 1919. – №92; O‘sha muallif: Sulh majlisi va uning natijalari // Ishtirokiyun. – 1919. – №99.
3. Abu T. Sulhi umumiy natijasida // Ishtirokiyun. – 1919. – №102; Ovrupo maydonlarida // Ishtirokiyun. 1919. 10-iyul. – №130; Siyosat va urush maydonlarida // Ishtirokiyun. – 1919. – №135
4. Vashington konferensiyasi. Chet ellarda // Qizil Bayroq. – 1921. – №118
5. Usmonxon. Genuya konferensiyasi va Yaqin Sharq // Inqilob. – 1922. №5. – B.1
26. Gazetchi. Farg‘onada tub joy xalq matbuoti // Farg‘ona. – 1924. – №168.